

TALABA YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING ZARURIYATI

Абдухакимова Нафосат Хасан қизи

*Чирчик давлат педагогика университети
Педагогика факултети Мактаб менежменти йўналиши
4-босқич талабаси*

Annotatsiya: *Talabalarni o'quv faoliyatidan ajralmagan holda qo'shimcha kasbga yo'naltirish orqali ularda axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.*

Аннотация: *Формирование знаний и умений в области информационных технологий путем направления студентов на дополнительную профессию без отрыва от учебной деятельности*

Abstract: *Formation of knowledge and skills in the fields of information technologies by directing students to an additional profession without separating them from educational activities.*

Kalit so'zlar: *Dasturlash, grafik dizayner, SMM, kopirayting, mobilografiya, frontend, bekind(backend), ilovalar, dizayn, testlash, marketing.*

Ключевые слова: *Программирование, графический дизайнер, SMM, копирайтинг, мобилография, фронтенд, бэкенд, приложения, дизайн, тестирование, маркетинг.*

Keywords: *Programming, graphic designer, SMM, copywriting, mobilography, frontend, backend, applications, design, testing, marketing*

Hayot shiddat bilan o'tib boryapti. Borgan sari muammolar ko'payib, vaqt tig'izlashmoqda. Rivojlanish esa jadallashgan. Talabalar hayoti esa hamon o'sha-o'sha: moliyaviy muammolar, stress, soatlab ma'ruzalar tinglash, bir talay konspekt yozish, ijara muammosi, xullas, sanaymiz desak sanog'i yo'q.

Yechim esa faqat va faqat pulga borib taqaladi. Ya'ni, ishlash kerak. Talabani esa hech bir ish joyida quchoq ochib kutib olishmaydi. Ammo hali afsuslanishga erta! Nega deysizmi, unda maqolani oxirigacha o'qishingizga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, axborot texnologiyalari hozirda har bir sohaga o'zining imkoniyatlari, zamonaviyligi bilan kirib bormoqda. Va shu sohalarda aynan axborot texnologiyalari sababli favqulotda o'zgarishlar, tezkor rivojlanishlar bo'lmoqda.

Odatda har bir soha o'zining kichik yo'nalishlaridan tashkil topgan bo'ladi. Masalan, ta'lim tizimida matematika, fizika, tarix. Sog'liqni saqlashda stomotologiya, gastrologiya, lor va hakazo. Bu yo'nalishlarda ko'plab o'xshash qismlar bilan birga, ular orasida juda katta ularni bir-biridan ajratib turuvchi, bir-birini o'rnini to'ldira olmaydigan muhim attributlari mavjud. Axborot texnologiyalari sohasida ham huddi shunday yo'nalishlar bo'lib, bu yo'nalishlar bir-biridan ular mo'ljallangan texnologiyalar, vazifalar, rivojlanish bosqichlari

bilan ajralib turadi. Demak, quyida axborot texnologiyalari yo'nalishlarning asosiylari izohlari bilan keltirib o'tilgan:

Dasturlash bu – ma'lum bir jarayonni tezlashtirish, osonlashtirish, tushunarli qilish. Katta avlod vakillari uni qiyin deyishi mumkin, negaki ular dasturlashdan foydalanib ko'rishmagan. Oddiygina to'lov qilish usullarini oladigan bo'lsak, oldingi zamonlarda to'lov uchun bankka yoki ma'lum bir idoralarga borilar edi. Hozir esa uni telefonimizdagi birgina dastur orqali amalga oshirishimiz mumkin. Dasturlashga bo'lgan talab O'rta Osiyoda juda ham yuqori. Kadrlar esa juda ham kam. Misol uchun qaysidir tashkilot o'ziga veb-sayt yaratmoqchi bo'lsa, dasturchini chet eldan qidirishiga to'g'ri kelyapti.

Dasturlashni hamma o'rgana olmaydi. Kompyuterni yaxshi tushunadigan va matiqiy fikrlashi yuqori darajadagi insonlar dasturlashni o'rganishi mumkin. O'rganishga ketadigan vaqt esa har kimning o'ziga bog'liq. 1 yoki 3 oyda ham qaysidir dasturlash tilini qisman o'rganish mumkin. To'liq o'rganish uchun 1 yildan 2 yilgacha vaqt ketishi mumkin.

Grafik dizayner — kompyuter grafikasi yordamida muammolarga yechim taqdim etuvchi, o'z g'oyalarini odamlarga ko'rsatuvchi inson. Hayotimizdan grafik dizayner kasbini olib tashlasak nima bo'ladi, bilasizlarmi? Biz CocaCola bilan Pepsini, MacCoffee bilan Jacobsni, Snickers bilan Marsni bir ko'rishda ajrata olmas edik. Shu sababli ushbu sohaga bo'lgan talab nihoyatda yuqori. Agar bu soxani puxta o'rganib olsangiz ish topish umuman muammo emas. Grafik dizayner — Adobe, Photoshop, Adobe Illustrator. Figma va boshqa shu kabi dasturlar yordamida logotiplar, jurnallar, bannerlar, kitob muqovalari kabi dizaynlarni tayyorlaydi. Hammaga tanish bo'lgan Apple, Microsoft, Google va Amazon kabi kompaniyalarning logolari ham aynan grafik dizaynerlarning mehnat mahsuli hisoblanadi.

Grafik dizaynni hamma o'rgana oladi. Odatda uni o'rganish o'quv markazlarda 6 oygacha davom etadi.

Kopirayting – marketing matnlari, u SMM postlar bo'lishi mumkin, ya'ni reklama brendlaridagi matnlar, reklama ssenariylari, audio reklamalar. Xullas, tovarni sotib olishingizga undovchi qiziqarli matnlar yozilishi – bu kopirayting hisoblanadi. O'zbekiston bozoridagi katta muammolardan biri shuki, talabga javob beradigan kopirayterlar juda kam. Qayerda matn yozilsa, u yerda, albatta, kopirayter kerak. 3 oylik kursda o'qib, darrov kopirayter bo'lish mushkul. Talabga javob berish uchun esa ko'proq o'z ustida ishlash kerak. Kopiraytingni imkon qadar imlo qoidalarini biladigan, ko'proq kitob o'qiydigan, keng doirada fikrlaydigan kishilarning o'rganishi osonroq bo'ladi.

Mobilografiya bu - telefonda video olib, montaj qilish. Turli kreativ, trenddagi videolarning ko'pchiligi mobilografiya mahsuli hisoblanadi. Mobilografiyani chinakamiga zamonaviy kasb deya olamiz. Mobilografiyani o'rganish bilan tezda ish topish va daromadga kirish mumkin. Bu sohaga talab kundan kunga oshsa oshyaptiki kamaygani yo'q. Bloggerlar, avtosalonlar, modellar, kata va kichik biznes egalari tomonidan bu sohaga talab yuqori.

Frontend - ilova, dastur yoki veb saytda yo verstka yo javascript dasturlash tili yoki dasturlash tilisiz ma'lum bir vazifani bajaruvchi va asosan oddiy foydalanuvchi bilan

bevosita har xil turdagi ishlarni bajarishda vositachi, muloqotda bo'luvchi yo'nalish. Bu yo'nalishda asosan internetda har xil xizmatlar yaratiladi. Bu soha vakillari asosan mijoz "tomonda(brauzerda)" ishlashadi. Ular odatda HTML, CSS, JavaScript, JQuery, Angular.js, React.js dan foydalanishadi.

Bekend(backend) - yoki veb-texnologiyalar. Bu yo'nalishning asosiy vazifasi foydalanuvchilardan bilvosita ma'lumolarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va talabga qarab yana qayta yuborishdan iborat, ya'ni bu yo'nalish vakillari ham internetda har xil xizmatlar yaratishadi. Ular PHP, Python, Java, JavaScript(Node.js), C#, MySQL, PostgreSQL yordamida, loyihalarning server tomonida ishlashadi, kod yozishadi. Ularning ishlari oddiy foydalanuvchilarga ko'rinmaydi.

Ilovalar - yoki mobil dasturlar yaratish. Bu yo'nalish mutaxassislari smartfon, planshet kabi qurilmalar uchun mobil ilovalar yaratishadi. Bunda hozirda asosan 3 ta asosiy operatsion tizim uchun ilova yaratiladi. Bular: Android, IOS va Windows Phone. Bu yo'nalish vakillar o'z ilovalarini ko'p hollarda Java, Object-C, Swift, C# va ba'zi hollarda JavaScript(Cordova, React Native) yordamida dunyoga keltirishadi.

Dizayn - nomidan ham ma'lum bo'lgan bu yo'nalish saytlar, mobil ilovalar, logotiplar, interfeyslar, har xil internet xizmat uchun dizaynlar yaratishdan iborat. Bu yo'nalish mutaxassislari dizaynerlar deb atashadi.

Tizimlash - axborot texnologiyalardagi eng muhim yo'nalish(mutaxassislik)lardan biri. Bu yo'nalishda ishlaydigan mutaxassislar serverlar, ma'lumotlar omborlari, har xil turdagi tarmoqlar, xavfsizlik tizimlarini yaratish, boshqarish, ularni qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadilar.

Testlash - bu yo'nalishning vazifasi biror bir mahsulot yoki xizmatni mijozga yetkazishdan oldin uni tekshirishdan iborat. Bu yo'nalish vakillari dasturlar, mobil ilovalar, saytlarni tekshirish - testlash bilan mashg'ul bo'lishadi. Ular ba'zi hollarda loyihalarni foydalanuvchilarning yuqori, ko'p sonli so'rovlariga bardoshlilikini ham aniqlashadi, tekshirishadi.

Menejment - ya'ni boshqaruv. Bu yo'nalish har bir loyihani to'g'ri rejalashtirilishi, uni amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, har qanday loyihaning "o'xshashi" yoki "o'xshamasligi" aynan shu yo'nalish vakillariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Ular har xil yo'nalish rahbarlari: kompaniya boshqaruvchilari, loyihani boshqaruvchilar, mahsulotni boshqaruvchilar, ular odamlarni boshqarishlari mumkin, ular loyihalarni boshqarishlari mumkin, ular biznes jarayonlarni boshqarishlari mumkin. Ular asosan loyiha uchun qisman yoki butunlay javobgar bo'lishadi. Ular muhim qarorlar qabul qilishadi, qo'l ostilaridagi boshqa yo'nalish mutaxassislarni boshqarishadi, ularga to'g'ri yo'nalish berishadi.

Marketing - piar, reklama, marketing, qidiruv tizimlarida loyihalarni tarqatish, rivojlantirish bilan shug'ullanishadi. Mahsulot yoki xizmatni bozorda tanitish, rivojlantirish, kerak bo'lsa, ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchilar bilan oddiy foydalanuvchilar yoki mijozlar o'rtasidagi vositachi hamdirlar.

Analitika - bu analitikaning har xil turlari: tizim analitikasi, ma'lumot analitikasi, biznes-analitika va boshqalar. Bu yo'nalish vakillar kompaniya mahsulot yoki xizmatlarini doimiy ravishda tekshirib borish, kompaniya faoliyat olib boradigan bozorni, kompaniya raqobatchilarini kuzatib borish, kerakli vaqt kompaniyaning mas'ul xodimlariga mahsulot yoki ximat yuzasidan kerakli analitik ma'lumotlarni yetkazishlar kerak bo'ladi. O'z navbatida bu ma'lumotlar mahsulot yoki kompaniya ko'rsatadigan xizmatni rivojlantirish, uni taqdiri, kompaniyaning keyingi istiqboldagi rejalarini tuzish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Bu sohalarni o'rganish meningcha hech bir yoshga qiyinchilik tig'dirmaydi. Chunki bugungi kun yoshlari texnika asrida dunyoga keldi va texnika bilan birga ulg'aydi. Faqatgina talab etiladigan asosiy element bu – harakat, bilim olishga bo'lgan ishtiyoq va albatta, sabr-qanoat.

Talabalar yuqorida tilga olingan sohalarni puxta o'rganishlari orqali dars mashg'ulotlaridan ajralmagan holda qo'shimcha daromad topishlari mumkin. Bu esa o'z navbatida moliyaviy muammolarini hal qilishga katta yordam beradi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A, Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qollanma. - Toshkent: O'zROO'MTV, 2007 y
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014y
3. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. -T.:FAN. 2004
4. Khimmataliev, D., Sultanova, D., & Omonova, N. (2023). Development of students'creative competencies based on individual approach in educational cluster conditions. Science and innovation, 2(B9), 35-38.
5. Мусурмонов Р., Химматалиев Д.О., Султанова Д.А., Кызы Турсунбаева Ю.Р., Хакимова И.К. и Мусурмонова М. (2023). В условиях нового Узбекистана основные проблемы науки и современного образования. Телематика, 7686-7694.